



O‘zbekiston Hududida Tibbiyot Fani Rivojlanishining Ilk Bosqichlari

Haqberdiyev R. Sh., o‘qituvchi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya: O‘zbekiston hududida tibbiyot fani rivojlanishining ilk bosqichlari, holati, shuningdek, u bilan bog’liq bo‘lgan tarixiy-madaniy jarayonlar manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Qadimgi Tibbiyot, Avesto, Qur’oni Karim, Zardusht, Vendidat, Saydana Fi-T-Tibb, Al-Qonuncha, Qorabodin, Fihrist, Epilepsiya, Tib Qonunlari.

Annotation: The first stages and State of the development of medical science on the territory of Uzbekistan, as well as the historical and cultural processes associated with it, are revealed on the basis of sources.

Keywords. Ancient Medicine, Avesto, Quran Karim, Zoroastrian, Vendidat, Saydana Fit-Tibb, Al-Qonuncha, Qorabodin, Fihrist, Epilepsy, Medical Laws.

Kirish

Insoniyat ming yillar davomida tibbiyot ilmi yordami bilan turli kasalliklar bilan kurashib kelgan, zamonaviy tibbiyot eng yuqori darajada rivojlangan hozirgi zamonda ham o‘sha davr tibbiyot ilmi faol ravishda qo’llaniladi. Tibbiyot sohasi rivojida tibbiyotga tegishli manba va asarlar muhim ahamiyat kasb etib, buyuk tibbiyot mutaxasislari ulardan keng qullab amalda foydalanib kelgan. Qadimgi tibbiyot esa asrlar davomida azaliy ananaviy usullar haqidagi bilimlar bilan birga ilmiy asosga ega asarlardan ham samarali foydalanganligi uchun hayotda ahamiyatini yuqotmaydi, shu bilan birga tibbiyot fanining oldin mavjud bo’lmagan ilmiy yangiliklar bilan boyib borishiga yordam berdi.

Jamiyatda mavjud har bir soha faoliyatida qo’llanmalar, asarlar muhim ahamiyatga ega. Muayyan kasb egalari mashg’ulotlarini ilm-fan yutuqlariga tayangan holda olib borsa, katta muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkinligi hayotiy tajribada o‘z isbotini topgan¹. Xususan, tibbiyotning turli vakillaridan asosan tabiblar diniy ta’limotga asoslangan qo’llanmalar, tibbiyot ilmi bilimdonlarining fors, arab, turkiy tillarda yozgan ko‘plab nodir kitoblari, qo‘lyozmalarda keltirilgan ma’lumotlardan bemorlarni davolashda umumli foydalana olganlar. Tabiblardan tibbiyotga doir murakkab kitoblarni o‘qish, tahlil etish uchun fors va arab tillarini biliishi talab etilgan. Shuningdek, tabib odam tanasi tuzilishi, ya’ni anatomiya fanidan boxabar bo‘lishi, turli o‘simgilarning dorivorlik xususiyatlarini, ularning kimyoviy tuzilishi to‘g‘risida muayyan tushunchalarga ega bo‘lishi zarur edi. O‘rta Osiyolik tabiblar turli tarixiy davrlarda o‘z amaliyotlari davomida Qur’oni karim oyatlari va Hadisi sharif, Abu Bakr ar-Roziy, Ibn Sino kabi tibbiyot ilmining mutafakkirlari bilan birga Mahmud Hakim Yayfoniy Ho‘qandiy, Mulla Nurmuhammad, Homidxon ibn Zohidxon ibn Muhammad Sodiqxon Shoshiy, Bositxon ibn Zohidxon ibn Sodiqxon Shoshiy, Alixonto‘ra Sog‘uniy kabi allomalarining asarlaridan foydalanganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbekiston hududida qadim zamonlarda yashagan xalqlarning tibbiyoti haqida birinchi yozma ma‘lumotlarni biz zardushtylarning diniy muqaddas kitobi “Avesto”dan topamiz. Avesto O‘rta Osiyo, Eron va Ozarbayjon hududida yashagan xalqlarning diniy aqidalari haqidagi muqaddas kitobdir. Kitobni eramizdan oldingi taxminan VII asrda yashagan

¹ Rustam o‘g, R. Z. D. (2024). Ishlab chiqarish ta’limi shartnomasining belgilari va tashkiliy shakllari. Italy “actual problems of science and education in the face of modern challenges”, 17(1).



Zardusht yozgan, deb hisoblaydilar². Sharq tabobati ta'limot sifatida turli tarmoqlarga bo'lingan holda rivojlanib kelgan³.

Tibbiyot tarixi uchun foydalanilgan manbalar va kitoblarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Birinchi guruhga diniy mazmun va mohiyat kasb etgan manbalar –Avesto manbalari va Qur'oni karim oyatlari, hadisi shariflar;

Ikkinci guruhni buyuk alloma, hakim – tabiblar tomonidan yaratilgan asarlar – Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Bakr ar-Roziy, Ismoil Jurjoniy va boshqa olimlarning kitoblari;

Uchinchi guruhni esa xalq tabiblari orasida mashhur bo'lgan kichik hajmdagi risola va qo'llanmalardan iborat.

Avesto uch kitobdan iborat. Birinchi kitob "Vendidat" deb ataladi. Bu kitobda tibbiyotga oid muhim ma'lumotlar berilgan⁴.

Ilm insonni ulug'lovchi, komillikka olib boruvchi eng to'g'ri yo'ldir⁵. Islom dini insonlarni ilmi orqali o'rnatishga chaqiradi. Komillikka olib boruvchi ilmni o'rganib, uni amali ila fazilatli qilish ulug'lar yo'lidi. Xususan, Islom ta'limotida tibbiyot ilmi bo'yicha juda ko'p hikmatlar mavjud.

Hadisda "Pokizalik kishining zehn-idrokini oshiradi, tabiatini ravshan qiladi, chiroyiga chiroy qo'shadi, uni har xil kasallikkordan saqlaydi. Buning uchun kamida haftada bir hammomga tushish, tirnoq, sochlarni olish, tishni yuvish, ovqatdan oldin-keyin, xojatdan so'ng qo'lni yuvish lozim" deyiladi.

Yuqumli kasalliklar haqida gap ketganda ("Hadis"da) – "Agar, biron joyda vabo tarqalgan bo'lsa, u yerga kirma, sen bor joyda vabo tarqalsa qochib chiqma" deyilgan. Bu bilan karantin jarayoni nazarda tutiladi. Buni: "O'zinga ham kasallikni yuqtirma, boshqaga ham yuqishiga sababchi bo'lma"⁶ deb sharhlash mumkin.

O'xshash ravishda "Avesto"da ham yozilishicha kasallikkardan qutulishda avval yaxshilik xudosi Oxuramazdaga sajda qilmoq kerak , faqat uning yordami bilan kasallikdan qutulish mumkin⁷.

Yunonlar O'rta Osiyonni zabit etib, o'z hukumronliklarini o'rnatganlaridan so'ng bu yerda yunon Hakimlar kela boshladilar. Ammo, bizning qo'limizda o'sha davr tibbiyotiga oid ma'lumotlar mavjud emas⁸.

Islom olamining mashhur ulamosi Imom G'azzoliy shunday deganlar: "Qur'on bir

² Rustamova X.YE., Stojarova N.K., Nurmamatova Q.CH., Abdurashidova Sh. A. Tibbiyot tarixi. - Toshkent – 2014-39-b.

³ Jakbarali Jo'rayev, Martdiyorbek Jo'rayev. Tabobat xazinasidan javohirlar. Toshkent(2012)-3b.


⁴ Rustamova X.YE., Stojarova N.K., Nurmamatova Q.CH., Abdurashidova Sh. A. Tibbiyot tarixi. - Toshkent – 2014-39-b

⁵ Togaymurodov, J. (2023). SOCIAL POTENTIAL OF RELIGIOUS TOLERANCE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(5), 215-218.

⁶ Ochilova O. Islom ta'limotining tabobatdag'i o'rni // "Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g'oyalari, takliflar va yechimlar" mavzusidagi 25-sonli respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiysi materiallari to'plami 12-oktabr , 2021-yil. – B.166-170.

⁷ Rustamova X.YE., Stojarova N.K., Nurmamatova Q.CH., Abdurashidova Sh. A. Tibbiyot tarixi. - Toshkent – 2014-42-b

⁸ Rustamova X.YE., Stojarova N.K., Nurmamatova Q.CH., Abdurashidova Sh. A. Tibbiyot tarixi. - Toshkent – 2014-43-b



nurdir. Xatoga bormoqdan najot topish, qutilish faqat u bilan mumkindir. Qalblarni buzgan kasalliklarga shifo undadir". Darhaqiqat, Qur'oni karimning mo'jizasini qarangki, XV asrdan buyon insoniyatga Alloho tanitib, hidoyat yo'lini yoritib kelayotgan bu muqaddas kalom ummatlarning tashna qalblarini, ruhlarini imonning pokiza suvlari ila sug'oribgina qolmay, ularning jasadlari va a'zolaridagi xastaliklarga ham shifo bo'lib keldi.

Tibbiyotda bemorlarni davolashda diniy ta'limotlar va kitoblardan unumli foydalanib kelingan.

Ibn Sino vafotidan ming yildan oshiq vaqt o'tsa-da, yangidan-yangi tibbiyotga oid asarlar yaratildi. Ayniqsa, sobiq Ittifoq davrida xalq tibbiyoti bilan shug'ulanuvchi tabiblar quvg'in ostiga olinishiga qaramay, o'tmish tibbiyotimizing vakillari yashirinchcha bo'lsa ham, o'z faoliyatini davom ettirdi. Ular orasida xalq tibbiyotini mukammal bilgan, arab va fors tilidan chuqur xabardor, Ibn Sino va undan keyin o'tgan tabiblarning asarlarini o'z asl tilida o'qib, tushuna oladiganlar ham ko'p edi. Bu tabiblar o'z faoliyatları davomida arab va fors tilidagi tibbiyotga doir manbalardan samarali foydalanib keldi.

O'rta Osiyoning ko'zga ko'ringan olimlaridan biri bu Abu Nasr Farobi - mashxur o'rta osiyolik faylasuf. Uni «Sharq Aristoteli»deb atashgan. Boshqa fanlar bilan birga u tibbiyotni xam o'rgangan, va bir necha asarlar yozgan «Odam tanasining tuzilishi haqida», «Nazariy va amaliy tibbiyot». Birinchi kitobda odam tanasining tuzilishi va vazifalari keltirilgan, shuningdek kasalliklarning sabablari, davolash usullari va oldini olish haqida ma'lumotlar berilgan⁹.

O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimlari tibbiy asarlarni o'rganishni XX asrning 50 yillardan boshlaydi. Institut olimlari tabiblar va shifokor olimlar bilan hamkorlikda Ibn Sinoning "Tib qonunlari"ni o'zbek va rus tillariga tarjima qilgan. Akademik U.I.Karimov Abu Rayhon Beruniyning "Saydana fi-t-tibb" ("Tibbiyotda dorishunoslik") nomli asarini tarjima qilib, nashr etildi. Ibn Sinoning boshqa asarlarini o'z ichiga olgan "Tibbiy risolalar" nashr qilindi va risolaga olimning tibbiyotga oid yangi asarları kiritildi. Arabshunos olim H.Hikmatullayev Abu Bakr Roziy merosini o'rganib, uning Sharqda birinchi bo'lib kasalliklar tarixini qo'llaganini isbotladi. 1990 yillarga kelib, bu olimning "Kasalliklar tarixi" va "Sharq tibbiyoti" nomli kitoblari ham nashr etildi¹⁰. Abu Abdullaxom Ilakiyning yaratgan asarları «Kasallik sabablari va belgilari haqida», «Davolash usullari», «Tibbiyot haqida jamlanma», «Tibbiyotdan chiqarib olingan», «Qonunlarni qisqartirish»¹¹.


Toshkentlik Muhammad Shohxo'ja Mahmud Chag'miniyning "Al-Qonuncha", Yusufiyning "Jam' ul-favoiyid" asarlarini turkiy tilga tarjima qiladi. Sulton Ali tabibning "Muqaddimai dastur ul-iloy" asari hamda boshqa bir necha risolalar ham turkiy tilga tarjima qilingan. Yildan-yilga tibbiyot tarixi bilan shug'ullanuvchi olimlarning safi kengayib, o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlar soni ham ko'payib bordi. "Tibbiyot xazinasi durdonalaridan", "Tibbiyot ummonidan tomchilar", "Tibbiyot durdonalar", "Mizoj haqida risola", "Hakimlar hikoyati", "Luqmoni hakim o'gitlari" (M. Hasaniy), "Navoiy davri tibbiyoti" (M. Hasaniy, S. Karimova), "Tibbiy o'gitlar" (S. Karimova) kabi kitoblar shular jumlasidandir.

IX-XIII asarlar sharq xalqlari hayotida muhim tarixiy voqealarga boy davr sifatida tarixga kirdi. Bu davrda Markaziy Osiyoda Somoniylar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar kabi sulolalar hukumronlik qilib, har bir sohada muayyan o'zgarishlar va

⁹ Rustamova X.YE., Stojarova N.K., Nurmamatova Q.CH., Abdurashidova Sh. A. Tibbiyot tarixi. - Toshkent – 2014-70-b

¹⁰ Sharq tabobati. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.

¹¹ Rustamova X.YE., Stojarova N.K., Nurmamatova Q.CH., Abdurashidova Sh. A. Tibbiyot tarixi. - Toshkent – 2014-73-b



yuksalishlar kuzga tashlanadi. Sulolalar o'rtasida siyosiy qarama qarshiliklar yuz berib turgan bo'lsada, ammo islam dini ta'sirida sharq mamlakatlari ilm-fanning asosiy o'choqlaridan biri bo'ldi. Ismoil Jurjoni o'zining tabobatga bag'ishlangan eng yirik asari "Zahira-i Xorazmshahi" ni 1110 yilda yozib tugatdi va uni Xorazmshoh Qutbiddinga bag'ishladi. Otsizning buyrug'iga ko'ra, bu asarning qisqartirilgan nusxasini 1113 yilda «Al-Xuffayi al-A'lo-iy» nomi bilan yozib tugatdi. Asar hammaga tushunarli fors tilida yozilgan bo'lib, harbiy yurishlar va sayohatlarda ham har kim etigi qo'njiga solib yurishiga qulaylik yaratish maqsadida shunday qilindi. «Zahirai Xorazmshohiy» o'n kitobdan iborat bo'lib, keyinchalik unga «Dorisozlikka oid kitob» («qorabodin») qo'shildi.

Ko'plab olimlar, faylasuflar, adabiyot va san'at namoyandalari yetishib chiqdi. Bu olim va fozillar fan va madaniyatning turli sohalariga oid o'lmas asarlar yaratdi. Ular jahon fani va madaniyatiga bebaho durdonalar bo'lib qo'shildi. Firdavsiyning "Shohnoma"si, Ibn Sinoning "Tib qonunlari" kabilar shular jumlasidandir. «Tibbiyot haqida yuz savol», «Tibbiyot haqida kitob», «Vabo hida kitob», «Chechak haqida maqola», «Ruh haqida kitob», «Tabiy bilimlar haqida kitob» va b. dohiy Abu Saxl Masixga tegishlidir¹².

Abul Hayr ibn Hammor. Yoshi ulug' tajribali tibbiyotchilardan biri hisoblangan. Abul Hayr ibn Hammor Bag'dodda tug'ilgan va hayotining ko'p qismini aynan shu shaharda o'tkazgan. Voyaga yetgach Urganchga yetib keldi, o'zining shogirdi bilan biografiyaga oid ko'pgina kitoblar yozdi. "Odamning yaratilishi va uning organlarini tuzilishi haqida", "Qariyalar rejimi haqida", "Epilepsiya haqida maqola" kabi asarlari.

Abu Sahl Masihiy. 1010-1017 yy. Akademiya a'zosi, taniqli bilimdon, faylasuf, mantiqchi, mashhur tibbiyotchi. Ilk tibbiy bilimlarni Jurjonda olgan, keyin Bag'dod va Xurosonda davom ettirgan. Abu Ali ibn Sinoning "Tibbiyot haqida yuz savol" asarini o'qib chiqqach, sirtdan ustoz deb tan olgan. 997-yil Xorazmda bo'lganida Abu Rayhon Beruniy bilan tanishdi. "Vabo hida kitob", "Chechak haqida maqola", "Ruh haqida kitob", "Tabiiy bilimlar haqida kitob" asarlar Abu Sahl Masihiyga tegishli.

Institutda saqlanayotgan tibbiy asarlarning "Fihrist"i tayyorlandi. H.Hikmatullayev va S.Karimova tomonidan tayyorlangan bu "Fihrist" olmoniyalik olimlar bilan hamkorlikda chop etildi. S. Karimova kimyo va tibbiyotga bag'ishlangan asarlar haqida yirik ilmiy ishni amalgaloshirdi.

Xulosa

Buyuk ajdodlarimizning oltin merosi, shu jumladan, tib ilmiga doir bebaho asarlari umumxalq mulki hisoblanadi. Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Jurjoni kabi ulug' bobolardan qolgan ulkan meros chinakam bahosini topishi uchun ularning asarlarini sinchiklab tadqiq qilishimiz muhim. Bugun ananaviy tabobat zamonaviy tibbiyot bilan baravar rivojlanmoqda va bu jarayonda tibbiyot ilmi sohiblarining asarlari albatta mukammal asos bo'la oladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Rustamova X.YE., Stojarova N.K., Nurmamatova Q.CH., Abdurashidova Sh. A. Tibbiyot tarixi. - Toshkent – 2014-39-b.
2. Jakbarali Jo'rayev, Martdiyorbek Jo'rayev. Tabobat xazinasidan javohirlar. Toshkent(2012)-3b.
3. Ochilova O. Islom ta'limotining tabobatdag'i o'rni // "Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlar" mavzusidagi 25-sonli

¹² Rustamova X.YE., Stojarova N.K., Nurmamatova Q.CH., Abdurashidova Sh. A. Tibbiyot tarixi. - Toshkent – 2014-74-b



respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari to'plami 12-oktabr , 2021-yil. – B.166-170.

4. Sharq tabobati. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
5. Togaymurodov, J. (2023). SOCIAL POTENTIAL OF RELIGIOUS TOLERANCE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(5), 215-218.
6. Rustam o'g, R. Z. D. (2024). Ishlab chiqarish ta'lifi shartnomasining belgilari va tashkiliy shakllari. Italy "actual problems of science and education in the face of modern challenges"., 17(1).
7. Muminova G., Tashpulatov B. POLITICAL REPRESSIONS DURING THE PERIOD OF COLLECTIVIZATION IN UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION) //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 725-729.
8. KarSU G. M., KarSU B. T. POLITICAL REPRESSIONS DURING THE PERIOD OF COLLECTIVIZATION IN UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION). – 2022.
9. Tashpulatov B. S. LOOKING AT THE HISTORY OF MEDICAL EDUCATION SYSTEM (ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN) //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 23. – C. 176-181.
10. Tashpulatov B. History of Training of Higher Medical Staff in Khorezm Region //НАУКА И ТЕХНИКА 2021. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. – 2021. – С. 10-13.
11. Shukhratovich T. B. HISTORY OF TRAINING OF SECONDARY MEDICAL SERVICES IN UZBEKISTAN //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – 2021. – Т. 7. – С. 1-1.
12. Ташпулатов Б. Ш. История Медицинских Институтов Узбекистана //ББК 1 Е91. – 2020. – Т. 215.
13. Ташпулатов Б. Ш. Медицинское образование в Узбекистане //Электронный сетевой полематический журнал "Научные труды КубГТУ". – 2020. – №. 3. – С. 480-486.
14. Ташпулатов Б. Ш. XX АСРДА ТУРКИСТОНДА ТИБИЁТ ЙЎНАЛИШИ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ.– 2020.–№. SI-1 №. – Т. 3.